

ERGONIMLARNING FUNKSIONAL-SEMANTIK TAHLILI

(Mehmonxona nomlari misolida)

*Abdurasulova Dilso'z Sherzod qizi**Qarshi davlat universiteti magistri*

Annotatsiya: Maqolada ergonimlar tahlil qilingan bo'lib, ularning shakllanishi va funksional-semantik xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, ergonimlarning tilda assotsiativ aloqa hosil qilishi, nom tanlashdagi yutuq va muammolar, shuningdek, vazifalar bugungi kunda mavjud mehmonxona nomlari misolida o'rganilgan.

Kalit so'zlar: onomastika, ergonim, mehmonxona, milliy nom, informativlik, lingvistik mezon

Har bir millatning milliy o'zligini ifodalovchi mezonlaridan biri uning ona tilidir. Odatda tilni ko'zguga mengzaydilar. Aniqroq aytganda, til har bir xalqning o'zligi, o'tmishi va madaniyatining aksini ko'rsatib turuvchi millatning bebaho boyligi hisoblanadi. Tilshunos olim N.Mahmudov ta'kidlaganidek, "Xalqning dunyoni ko'rish tarzi va idrok intizomi, eng avvalo, shu xalqqa oid olamning lisoniy manzarasida qayd etiladi"¹. Demakki, millatning turmush tarzi va madaniyatini ifodalovchi makon nomlari ham bunda alohida ahamiyatga ega.

Ma'lumki, tildagi jamiki so'zlarni o'rganuvchi soha bo'lgan leksikologiya bo'lsa, unga bog'liq holda lug'aviy birliklarni nomlash va tushuncha anglatish prinsiplarini tadqiq etuvchi tilshunoslik bo'limi onomasiologiyadir.

Tilshunoslik nuqtayi nazari bilan qaraganda muayyan ob'ekt va hudud nomlari zamonaviy tilshunoslikda lingvistik birliklar sifatida qaraladi. Nafaqat hudud, balki barcha atoqli otlar ham tilshunoslikning "nom qo'yish san'ati" deb izohlanuvchi onomastika bo'limida o'rganiladi. Tilimizda atoqli ot sifatida shakllangan barcha birliklar ham ayni shunday birliklar qatorida qaraladi.

Til o'ziga xos murakkab sistema ekan, birliklari esa tarkibidagi tasnif va munosabatlar ichida tizimli holatda bo'ladi. Shuningdek, haqiqiy va faraziy ob'ektlarning nomlari tizimi bo'lgan onomastik makon etnos tasvirida mavjud bo'lgan dunyo modeli bilan belgilanadi. A.V.Superanskaya ta'kidlaganidek, onomastik makon turli madaniyatlar, davrlar, hududlarga mansub odamlarda turli xil to'ldirishga ega va tilning leksik tizimidagi sinflarga tegishli ob'ektlarning belgilari tufayli boyitiladi. Ilk bor "Ergonim" termini 1978-yilda N.V.Podolskayaning "Rus onomastik terminologiyasi lug'ati"da qo'llanilgan. U joriy etilishidan oldin tadqiqotchilar

¹ Mahmudov N. Olamning lisoniy manzarasi va so'z o'zlashtirish. O'zbek tili va adabiyoti jurnali. –Toshkent. 2015. 14-bet.

”Urbanonim” atamasini ishlatishgan. Ergonimlar termin sifatida kishilarning mehnat birlashmalari nomlarini ifoda etadi. Ergo soʻzi yunon tilida mehnat maʼnosini bildiradi². Aynan shu boʻlimda tashkilot, muassasa, korporatsiya, birlashma, jamiyat, doʻkon va idoralarning nomlari oʻrganiladi.

Har bir mahsulot ishlab chiqarayotgan korxonada ushbu mahsulotni mijozlarga tanitish va etkazish uchun uning mohiyatini anglatuvchi nomga ega boʻlishi kerak. Munosib tanlangan nom esa korxonada bilan mijoz oʻrtasidagi aloqaning faol boʻlishini taʼmin etadi. Tanlangan nomning isteʼmolchida assotsiativ munosabat hosil qila olishi – bevosita uning xizmat yoki tovarga qiziqishini uygʻotadi. Bunda mahsulot toʻgʻridan-toʻgʻri nomlanmaydi. Nom assotsiativlik darajasi yuqori boʻlgan soʻzlardan tashkil topadi. Masalan, ”Mezbon” mehmonxona nomi shu turdagi xizmat koʻrsatish mavjudligiga ishora qiladi. Shuning uchun ham har bir korxonada, tashkilot oʻziga nom tanlar ekan uning maʼnosi, mazmun-mohiyatiga, albatta, eʼtibor qaratishi zarur.

Barchamizga ayonki, nomlash murakkab boʻlmagan hodisa emas. Unda xalqning milliy manfaatlaridan tashqari, respublikamizda istiqomat qilayotgan boshqa millat vazillarining ham manfaatlari hisobga olinishi lozim. Taʼkidlanganidek, neyning murakkab vazifaga ega jarayon. Munosib neym ijod etish esa til uchun ham, millat madaniyati uchun ham manfaatli hisoblanadi³. Mulk egalari uchun oʻz mulklarini boshqalarga jozibador, sodda, qisqa nomlar orqali tanitish muhim hisoblanadi.

Nomlash oʻziga xos sanʼat va ijod turi boʻlib, maqsadli auditoriyaga taʼsir oʻtkazgan holda xaridorlarni maʼlum brend va kompaniyalarga ustunlik berish uchun undaydi. Chunki zamonaviy dunyoda brendlar korporatsiyalarga tegishli soʻzlar kabi tasodifan yoki atayin holatda lugʻat boyligimizning bir qismiga aylandi.

Ergonimlarning kelib chiqish masalasi ham tildagi alohida bir jarayondir. Bizning nuqtayi nazarimizga koʻra, ergonimik birliklarning kelib chiqishi ikki turga boʻlinadi:

- 1) xorijiy tilidagi lugʻat asosida hosil boʻlgan ergonimlar;
- 2) oʻz qatlam birliklari asosida hosil boʻlgan ergonimlar.

Aksariyat hollarda, nom tanlovchilar obʼekt nomini xorijiy tilda nomlash orqali isteʼmolchilarni jalb qilish va reklama qilishni maqsad qilishadi. Masalan, bugungi kunda uchrayotgan ”Maxwell”, ”Intercontinental Tashkent”, ”Hotel Inspira-S Tashkent”, ”Lumiere”, ”Grand Mir Hotel” ergonimlarining hosil qilinishda mehmonxona nomlarining jarangdor boʻlishi, goʻyoki ”oʻzimizniki emas, xorijniki”

² Словарь иностранных слов. –М. Русский язык. 1987, –С. 591.

³ Shukurov O. Oʻzbek tili zamonaviy oʻzlashmalarining evolyutsiyasi, transformatsiyasi va zamonaviy talqini masalalari: Filol. fan. d-ri...diss. –Qarshi, 2022. 68-bet.

ekanligini targ'ib qilish maqsad qilinadi. Bu kabi ergonimlar, ehtimol, diqqatni jalb qilishi mumkindir, ammo aksariyat hollarda informativ xususiyatga ega bo'lmaydi.

Afsuski, bugungi kunda yurtimizda tadbirkorlar nom tanlashda milliy tilimizdan ko'ra xorijiy tildagi so'zlardan ko'proq foydalanishmoqda. Achinarli jihati shundaki, neym tanlashda o'zbek xalqining ma'naviy-madaniy merosi bo'lgan tarixiy obidalarimizning nomlaridan foydalangan holatda ularni o'z ona tilimizda emas, xorijiy tillarda ifodalash holatlari ham uchraydi. Misol tariqasida Toshkentdagi mehmonxonalardan biri "Ak Saray" neymiga e'tibor qarataylik. Ushbu onomastik birlikni mehmonxona nomi sifatida tanlanganini xato deb bo'lmaydi. Oqsaroy – Shahrizabzdagi me'moriy yodgorlik (1380-1404), shaharning shimoli sharqidagi bosh maydonda joylashgan bino.

Millatimizning milliy o'zligini ifoda etuvchi yodgorliklardan birining nomi o'z milliy tilimizda ifodalansa, milliy madaniyatni ham targ'ib etishga hissa qo'shilgan bo'lardi. Masalaning boshqa tarafi esa, neym tanlashda balki mehmonxona xizmatidan faqat o'zbeklar emas, xorijiy millat vakillarining ham foydalanishi hisobga olingan holatda shu tarzda yozilgandir, ammo "Oqsaroy" nomining o'zbek tili orfografik qoidalariga muvofiq yozilishi bilan tilimizning tanilishiga ham oz bo'lsa-da hissa qo'shilgan bo'lar edi.

Toshkent shahridagi mehmonxonalardan birining nomi – "Huzur". Nazarimda, ushbu nom o'rinli tanlangan va ijobiylik kasb etgan. Ushbu so'zning izohiga to'xtaladigan bo'lsak, huzur (arabcha – bor, mavjud bo'lish, hozir bo'lish; kelish, ko'rinish, namoyon bo'lish) yuqori darajadagi qanoat, qoniqish hissi, kishi vujudi, a'zolarining yayrash holati; rohat⁴.

Ta'kidlash joizki, mehmonxona xizmatidan foydalanuvchilar faqatgina boshpana topishni emas, balki hordiq chiqarish, vaqtni maroqli o'tkazishni ham maqsad qiladilar, shu jihatdan xizmat turi va qo'yilgan nom o'rtasida assotsiativ aloqa hosil qilish mumkin. Yuqoridagi nom ham mehmonxonada mehmonlarning xavfsiz va xotirjamligi ta'minlanishi, xizmat qilish madaniyatining professionalligining yuqori darajada ekanligiga ishora qilmoqda. Shuningdek, nom mag'zida iste'molchi foydalanishi mumkin bo'lgan yuqori darajadagi sifat va qulaylik ma'nolari ham aks etadi va bularning barchasi ushbu xizmatdan foydalanuvchilarning mamnun va xotirjam bo'lishlari uchun qilinganligiga ishora etiladi.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, ergonimlarning tanlanishida obyekt mohiyati ifodasini topsa, u o'ziga xos reklama vazifasini ham bajaradi. Shu kabi yana obyekt xarakteriga mos tanlangan va e'tibor tortadigan ergonimlardan biri – "Mezbon" mehmonxonasi. Shu kabi obrazli nomlar iste'molchiga ta'sir o'tkazishni kuchaytirish

⁴ O'zbek tilining izohli lug'ati. Beshinchi jild. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. –558 b.

maqsadida tanlanadi va, sir emaski, bunday nomlar obyekt mohiyati haqida tushuncha, tasavvur uyg'otadi. Ushbu nomning lug'aviy ma'nosiga to'xtalsak, "Mezbon" forscha mehmonlarni kutib oluvchi; aynan: stol (dasturxonni qo'riqlovchi) mehmon kutuvchi, ziyofat, to'y egasi⁵. So'z yuritilayotgan „Mezbon“ mehmonxonasi O'zbekistonda eng yaxshi mehmonxonadan biri sanaladi. Mehmonxonaning nafaqat nomi, balki dekoratsiyasida ham milliylik ufurib turadi. Mezbon mehmonlarni tayyorgarlik va iliqlik bilan kutib olishi, mehmondorchilikning bekam-u ko'st bo'lishi uchun sidqidildan harakat qilishiga mehmonxona xizmatlarining professionalligi mengzalgandek, nazarimda. Ushbu nom ilk tanishishda tasavvur va tushuncha uyg'ota olishi bilan kishi assotsiativ maydonidagi chastotasi yuqori assotsiatsiyalar sifatida "Mehmonxona xizmati" stimul so'zining maydon yadrosidan o'rin oladi, ham originallik kasb etadi, obyekt mazmuniga mos tanlangan.

Yana bir mehmonxonaning "Safar" deb nomlanishida ham ergonimlarning ta'sirchanlik xususiyati namoyon bo'ladi. Albatta, mehmonxona xizmatidan o'z makonidan olisda bo'lgan sayyohlar va musofirlar foydalanishini inobatga olsak, ushbu neym iste'molchida tasavvur tug'diradi. Safar so'zining izohiga to'xtaladigan bo'lsak, arab tilidan olingan bo'lib, sayohat, sayr, biror joyga borish kabi ma'nolarni bildiradi⁶. Umuman olganda, stimul so'zni "Safar" deb oladigan bo'lsak, xizmat turi va unga tanlangan neym bir-biri bilan assotsiatsiya hosil qiladi va obyekt xarakteriga mos tanlangan deyish mumkin.

Albatta, mehmonxona xizmatidan faqatgina mahalliy aholi emas, xorijdan kelgan mehmonlar ham foydalanishini inobatga olsak, ushbu ergonimlarga munosib neym tanlashda chet tilidagi so'zlardan ham foydalanishni qoralab bo'lmaydi. Ammo mazmun-mohiyat va iste'molchini jalb etish neym ijod etishda juda muhim.

"Green", "White" kabi mehmonxonalarning nomlanishida ushbu ranglarning ramziy ma'nosiga ishora qilinganligi yoki faqatgina so'zlarning engil va jarangdor talaffuziga ahamiyat qaratilganligini anglash biroz mushkul. Ularning ramziy ma'nosiga to'xtaladigan bo'lsak, oq rang – poklik, beg'uborlik, soflik timsoli, yashil rang esa navqironlik, umid va shodumonlik ramzi bo'lib hisoblanadi. Ko'rinib turibdiki, til egasining mehmonxona haqidagi tasavvuri ushbu ramziy ranglar timsollari bilan assotsiatsiya hosil qilishi ehtimoldan yiroq, ya'ni ushbu nomlar ifoda etayotgan assotsiativ ma'no mehmonxona haqidagi assotsiativ maydonning chegara qismidangina o'rin olishi mumkin xolos.

Ma'lumki, savdo, ishlab-chiqarish obyektlari, korxonalar va tashkilotlar nomi u joylashgan hudud nomi bilan ham atalishi mumkin. Mehmonxona nomlari ham hududlar onomastikoniga mansub turli ergonimlarni qamrab oladi. Masalan, "Golden

⁵ O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikkinchi jild. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. -578 b

⁶ O'zbek tilining izohli lug'ati. Uchinchi jild. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. -460 b

Samarkand”, ”Registan Center”, ”Gur Emir Palace”, ”Marokanda”, ”Kosh Havuz butik” (Samarqand shahri), ”Beshchinor”, ”Old City”, ”Shosh Butik”, ”Chorsu” (Toshkent Shahri), ”Garden Plaza Bukhara”, ”Vardonze”, ”Zargaron”, ”Labi Rud Butik”, ”Poykent Bukhara Naqshband” (Buxoro Shahri) ”Naxshab”, ”Nasaf Trtavel” (Qarshi shahri) kabi ergonimlar bevosita joy nomi bilan bog‘liq holda hosil qilingan. Yuqoridgia ”butik” so‘zi qo‘shib hosil qilingan bir nechta ergonimlarni sanab o‘tdik. Ushbu so‘zning asl ma‘nosi nomlanayotgan xizmat turiga uyg‘un deb bo‘lmaydi, albatta. Butik (fransuzcha: [butik]) – moda liboslari yoki aksessuarlari sotiladigan kichik do‘kon. Bu so‘z fransuzcha "do‘kon" degan ma‘noni anglatadi, uning kelib chiqishi qadimgi yunoncha "omborxonona" so‘ziga tegishli. "Butik" atamasi 1960-yillarning oxirida umumiy ingliz tiliga kirdi. Yevropada Montaigne avenyusi va Bond ko‘chasi davrning eng zamonaviy do‘konlariga ega bo‘lgani uchun ommaviy axborot vositalarining diqqat markazida bo‘lgan. Ba‘zi ko‘p do‘konli korxonalar, agar ular kichik, yuqori darajadagi bozorlarni maqsad qilgan bo‘lsa, butiklar deb atash mumkin, garchi ba‘zi butiklar qo‘lda yasalgan buyumlar va boshqa noyob mahsulotlarga ixtisoslashgan bo‘lsa-da. Boshqalari shunchaki futbolkalar, stikerlar va boshqa moda aksessuarlarini sun‘iy ravishda kichik seriyalardi.⁷

Shuningdek, ”Oscar Butik”, ”Salam Inn Butik”, ”Altair Boutique Butik”, ”Sahar Butik”, ”Golden Minaret Butik”, ”Oasis Butik”, ”Ansi Butik” kabi nomlar bilan tanishganda ma‘nosini nafaqat o‘zbekzabon insonlar, balki inglizlar ham mehmonxonona xizmati haqidagi axborotga ega bo‘lmaydi.

Yuqorida qayd etilganlar orasidan ”Old city” ergonimining nomlanishida ham aynan ma‘lum hudud onomastikoniga mansub ekanligiga ishora qilinishini anglash mushkul. Chunki ushbu so‘zni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ingliz tilidan tarjima qiladigan bo‘lsak, ”eski, qadimiy shahar” ma‘nosini anglatuvchi tobe bog‘lanishli bitishuvli so‘z birikmasi hosil bo‘ladi. O‘zbek tilida, mahalliy aholi orasida, ”Eski shahar” atamasi atoqli ot sifatida tushuniladi va ayni bir hududni anglatuvchi nom sifatida qaraladi. Nominatorlar tomonidan Toshkent shahrining Eski shahar mavzesidagi mehmonxonona ekanligi ta‘kid etilib nomlangan ”Old city” mehmonxonasi xorijliklar tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushunilishini hisobga olsak, hech qanday informativ xususiyat kasb etmaydi. Asl ma‘nosini to‘liq tushunmasdan obyektlarni xorijiy tildagi so‘zlar bilan nomlash oqibatida uslubiy jihatdan noto‘g‘ri ifodalar yuzaga kelayotganligi o‘zbek tilining nufuziga putur etkazmoqda.

Tilshunos olim M.Saparniyazova ta‘kidlaganidek⁸, ergonimlarni hosil qilishda quyidagi qat‘iy mezonlarga amal qilinishi lozim:

⁷ <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Butik>

⁸ Saparniyazova M. ”O‘zbek tili ergonimlarining struktur-semantik, lingvomadaniy va pragmatik tadqiqi” (DSc ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya). Toshkent – 2023. -23 b.

1. Ergonim tadbirkorlik faoliyati obyektlari, korxonalar, firma, iste'mol tovarlari, uning markasi (brendi) haqidagi eng muhim ma'lumotlarni aks ettirishi.
2. Ergonimni yaratishda tilning adabiy me'yorlari (fonetik, leksik, orfoepik, grammatik, uslubiy me'yorlar)ga rioya etilishi.
3. Ergonimning til egalari uchun umummilliy madaniy qarashlari, an'analari, mentaliteti, dunyoqarashi, psixologiyasiga zid kelmasligi.
4. Ergonimning ijtimoiy-siyosiy tizim tamoyillariga zid kelmasligi.
5. Ergonimning insonda yolg'on tasavvur uyg'otmasligi, aksincha, uni o'ziga jalb etishi, tasavvurida ijobiy munosabat hosil qilishi hamda xotirasida tez va oson saqlanib qolishi.
6. Ergonimning til egalari uchun tushunarli, aniq hamda talaffuzga oson bo'lishi.
7. Ergonimning samarali kommunikativ muloqot uchun xizmat qilishi.
8. Ergonimning mahsulot va iste'molchi o'rtasida aloqa ko'prigi vazifasini bajarishi.
9. Ergonimning boshqa nomlar bilan o'xshash bo'lib qolmasligi, ular anglatgan mahsulotlarni yodga solmasligi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, tilda ergonimlarning hosil bo'lishida nafaqat lingvistik, balki psixologik, milliy-madaniy mezonlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir obyektga mohiyati jihatidan mos keladigan nom qo'yish har tomonlama ahamiyatga egadir. Nom tanlashda milliylik tamoyili ustuvorlik kasb etsa, tabiiyki, bu insonlarga milliy g'urur baxsh etibgina qolmay, milliy tilimizning ham tanilishida muhim rol o'ynaydi. Qolaversa, ohangdor, mazmundor, chiroyli nomlar yurtimizga bezak bo'lishdan tashqari, kishilarga ruhiy ko'tarinkilik ham bag'ishlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shukurov O. O'zbek tili zamonaviy o'zlashmalarining evolyutsiyasi, transformatsiyasi va zamonaviy talqini masalalari: Filol. fan. ...doktori (DSc) diss. avtoref - Qarshi: 2022. –B. 62
2. Saparniyazova M. O'zbek tili ergonimlarining struktur-semantik, lingvomadaniy va pragmatik tadqiqi: Filol. Fan. ...doktori (DSc) diss. avtoref - Toshkent: 2023. –B. 75
3. Mahmudov N. Olamning lisoniy manzarasi va so'z o'zlashtirish // O'zbek tili va adabiyoti. 2015. №3. –B. 3-12
4. Ro'zimoyev S. Yangibayeva S. Ergonimlarning ma'no qirralari // Ilm sarchashmalari. 2017. –B. 92-96
5. Lutfullayeva, D. E., Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi (Monografiya) "Merius" Toshkent: 2017. –B. 140
6. <https://www.dictionary.com/e/borrowed-words>
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. Beshinchi jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2006. –B. 591
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikkinchi jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2006. –B. 671